

Sayyor seminar o'tkazildi

// 02.05.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sayyor-seminar-o-tkazildi>



Kuni-kecha korxonalar rahbarlari va kasaba uyushma qo'mitasi raislari bilan hamkorlikda "Kuch-birlikda" shiori ostida sayyor seminar o'tkazildi.

Seminarda huquqshunoslik bo'limining boshlig'i A.Karakuziyev O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"ni yangi tahriri haqida axborot berdi. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi taqdimot ham namoyish etildi.



Seminar ishtirokchilari, shuningdek, korxonaga "Jamoaga shartnomasi" va "Ichki mehnat tartib qoidalari" bilan tanishtirildi. Kasaba uyushma qo'mitasi raisining yangi tahrirdagi "Kundaligi" haqida ma'lumot berildi. Seminar davomida mavzularni mustahkamlash uchun turli treninglar tashkil etildi. Sex boshlig'i va faollariga hamkorlikda jamoaga bo'lib ishlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, faoliyatga oid hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar berildi.



"Maxam-Chirchiq" AJ Matbuot xizmati